

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI FAOLIYATINI SAMARALI
TASHKIL ETISHDA BUGUNGI KUNDAGI MAVJUD MUAMMOLAR.**

Po'latov Ulug'bek Shavkat o'g'li

O'zbekiston Respublikasi oriental universiteti magistri

Annatsiya: *Ta'limdagi muammolar, ta'limga kiritilgan o'zgarishlar, boshqa mamlakatlar bilan qiyofaligi.*

Kalit so'zlar: *ta'limda bugungi kundagi muammolar, ta'lim sifati, munosabatlar, chora tadbirlar*

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatini qanday qilib samarali tashkil etish eng asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ta'limda qanday islohotlar amalga oshirilsa, kam vaqt, kam harajat va kam mehnat qilib sifatli, eng muhimi natijakor ta'limga erishish uchun qanday strategiyadan foydalanish eng asosiy o'g'riqli nuqtalarimizdan biri bo'lib qolmoqda. Afsuski, ta'limda qanchadan-qancha islohot va o'zgarishlar olib borilishiga qaramasdan O'zbekiston ta'lim tizimi haliyam jahon hamjamiyatiga o'zini ta'lim tizimida munosib o'rin egallay olmayapti. Bunga esa bugungi kundagi ayrim mavjud muammolar sabab bo'lmoqda. To'g'ri, maktab ta'limi hukumatning ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, so'nggi yillarda ta'lim sifatini oshirish maqsadida bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar imzolandi. Mazkur hujjatlar bilan birinchi navbatda o'qituvchilar vazifasiga kirmaydigan ishlardan ozod qilindi. O'z ustida ishlaydigan o'qituvchilarni rag'batlantirish uchun ularga imkoniyatlar berildi. Chet tili o'qituvchisi uchun qo'shimcha ustama, olis hududlardagi maktablarda boshqa hududlardan kelib faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarga ish stajiga ko'ra ustama, ta'lim sifati yuqori bo'lmagan maktablarda dars berish uchun maxsus ustama, olis hududlarga borib ishlaydiganlar uchun uy-joylarni ijaraga olganlik uchun kompensatsiya to'lovlari, milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi sertifikat uchun to'lovlar shular jumlasidan. Hususan, 2020-yil 23-sentyabrda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun yangi

tahrirda qabul qilindi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun bilan ta’lim olish shakllarining tasnifi kengaytirildi, ya’ni ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy), nazariy - ta’lim tashkiloti negizida, amaliy - ta’lim oluvchining ish joyida birga olib boriladigan dual ta’lim, oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish, katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun inklyuziv ta’lim, eksternat tartibidagi ta’lim - o‘quv dasturlarini mustaqil ravishda o‘zlashtirishni o‘z ichiga olib, uning yakunlari bo‘yicha ta’lim oluvchilardan davlat ta’lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o‘tish, mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash dasturlari yo‘lga qo‘yildi. Vazirlar Mahkamasi, soha vazirliklari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari tafsilotlari bilan aniqlashtirildi, ta’lim tashkilotlari – ularni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish, ustavga talablar, pedagogik xodimlar, ta’lim oluvchilar, ularning ota-onalari va boshqa qonuniy vakillari – huquqlar, majburiyatlar va kafolatlar bo‘yicha ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarining huquqiy maqomiga ko‘proq e’tibor qaratildi. Shu bilan birga ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlari belgilanganib, davlat ta’lim standartlari va talablari, o‘quv jarayoniga o‘quv rejalari va dasturlarini, ta’lim sohasiga eksperimental va innovatsion faoliyat ta’limni joriy etish bilan bog‘liq masalalar tartibga solindi.

O‘zbekiston Respublikasida 2021/2022 o‘quv yili boshiga jami umumta’lim muassasalari soni 10289 tani tashkil etib, ulardan 6368 tasi (61,9%) qishloq joylarida, 821 tasi (38,1%) shaharlarda joylashgan. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan umumta’lim muassasalari soni 1,1% ga oshdi (108 ta). O‘zbekiston Respublikasida umumta’lim muassasalari uch turga bo‘linadi: boshlang‘ich, umumiy o‘rta va boshqalar. 2021/2022 o‘quv yili boshiga umumta’lim muassasalarining umumiy sonidan 10144 tasi umumiy o‘rta ta’lim maktablari, 56 tasi boshlang‘ich maktablar va 89 tasi boshqa muassasalar. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 6272,3 ming o‘quvchi, boshlang‘ich ta’lim muassasalarida 7,6

ming o'quvchi va boshqa ta'lim muassasalarida 21,8 ming o'quvchi ta'lim olmoqda.

Umuman, ta'lim sohasida mavjud yutuqlarga qaramasdan, maktab ta'limida bir qator muammolar ham mavjud. Ayniqsa, hozirgi axborot asrida deyarli muntazam ravishda ijtimoiy tarmoqlarda maktablardagi ta'lim muammolari haqida xabarlar yoki materiallarni uchratish mumkin. Ular orasida vaqtinchalik tusga ega (masofaviy ta'limga o'tish, qonunchilikdagi o'zgarishlar) hamda tizimli (jamiyatda o'qituvchilarga munosabat, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar) muammolar mavjud. Quyidagilarni umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatini samarali tashkil etishdagi bugungi kundagi mavjud muammolar deb atasak mubolag'a bo'lmaydi:

Ta'lim siyosatini belgilashda ilmiy tadqiqot natijalaridan foydalanmaslik. Misol uchun, O'zbekiston ayrim mamlakatlar erishayotgan natijalarni kuzatib borib, uni o'zining ta'lim tizimiga joriy etishga juda ko'p marta harakat qilgan. Ammo, ta'limda ilg'or natijalarga erishayotgan mamlakatlar natijalar ma'lum bir paytdagi ta'lim tizimi haqidagi tassavurni qayd qiladi, ammo ular maktab tizimlari hozirgi kundagi natijalarga qanday erishganini, ularning rivojiga nima yordam berganini ko'rsatmaydi. Ilg'or tizimlardagi hozirgi holatni bilish O'zbekiston ta'lim tizimini qanday qilib yaxshilash kerak degan savolga javob bermaydi. Buning uchun chuqur o'ylangan tahlillarni ishga solish, eng muhimi esa undan foydalanish kerak bo'ladi. So'ngi yillarda O'zbekiston hukumati ham qator xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi uchun ko'plap ishlarni amalga oshirdi. Masalan, Respublika xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida 2018-yilning 8-dekabrida Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 997-sonli qarori imzolandi. Unga ko'ra, PIRLS, TIMSS, PISA va TALIS kabi bir qancha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish va

unga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha vazifalar belgilandi. Ammo, ta'lim siyosatini belgilashda xalqaro tadqiqot natijalaridan saboq olish uchun ta'lim tizimining hozirgi holatga kelib qolishidagi ayrim sabab va oqibatlarni ham o'rganib, chuqur tahlil qilish kerak bo'ladi. Buning uchun albatta qiyosiy tahlilning turli shakllarini – ta'limning sifati, ommaviyligi va samaradorligida mamlakatlar o'rtasidagi tafovutni kuzatish, shuningdek mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xos husussiyatlari bilan bog'liqlikni izlash lozim. O'zbekiston ta'lim tizimidagi eng katta muammolardan biri ta'lim ilmiy tadqiqotlarga asoslangan chuqur tahlillari natijalaridan kelib chiqib isloh qilinmasligidir. Shu sababli, ta'limga oid kiritilgan juda ko'p o'zgartirish hamda normativ hujjatlarda belgilab berilgan vazifalar o'z samarasini bermayotgan bo'lishi mumkin. Har yili ta'limga oid yuzlab magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari yoziladi, ilmiy ishlar qilinadi va tadqiqotlar o'tkaziladi. Ammo, ularda ko'tarilgan dolzarb muammolar chuqur o'rganib chiqilmaydi.

O'qituvchilar va hukumat o'rtasidagi munosabatlardagi muammolar. Ma'lumki, ta'lim siyosatini belgilab beradigan yuqori bo'g'in kadrlari aynan ta'limning eng quyi bo'g'inidan yetishib chiqmagan. Albatta, ta'limni boshqarishda aynan o'qituvchi bo'lib faoliyat yuritgan bo'lish talab etilmasligi mumkin lekin, olib borilayotgan islohotlarni o'qituvchilarni eshitib, ularni ham ta'lim siyosatini ishlab chiqishga jalb etgan holda amalga oshirish zarur. Misol uchun, TALIS so'rovnomasi o'qituvchilarni ovozini eshitishga mo'ljallangan dastur hisoblanadi. TALIS aynan pedagoglarni ovozini eshitish, ularning fikrlarini jamlab, tahlil qilib, samarali ta'lim strategiyasini ishlab chiqish, eng asosiysi o'qituvchilarni islohotlarga jalb etish uchun ishlab chiqilgan. To'g'ri, O'zbekiston ham 2024-yilda ushbu tadqiqotda ishtirok etish uchun astoydil tayyorgarlik ko'rmoqda. Shu sababli ham O'zbekistonda TALIS-2018 xalqaro tadqiqot talablari asosida tadqiqot o'tkazildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti O‘zbekistonda TALIS-2018 xalqaro tadqiqotlar talablari asosida o‘tkazilgan so‘rovnoma hisoboti 1-qism
A.Radjiyev, F.Karimov, A.Ibragimov, M.Axmedov
2. “Jahon miqyosidagi ta’lim” Andreas Shlyayxer. D.Norboyeva tarjimasi. – Toshkent: “Zamin Nashr” nashriyoti, 2022-yil.